

## **YANGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIV TA'LIM SIFATINI OSHIRISH YUZASIDAN OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR**

A.S.Valiyev<sup>1</sup> 

1. Hamkorbank ATB, Andijon, O'zbekiston.

**Correspondence:** Valiyev Abdugulom Soyibovich, Head of Corporate Clients Department, JSCB «Hamkorbank», Andijan, Uzbekistan. **e-mail:** abdugulomvaliev@hamkorbank.uz

**Received:** 02 February 2025; **Accepted:** 15 March 2025; **Published:** 20 March 2025.

**Abstract.** Maqolada yangi yangi O'zbekiston Respublikasida oliv ta'lism sifatini oshirish yuzasidan olib borilayotgan islohotlar bo'yicha fikr va mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, oliv ta'lism tizimini va sifatini takomillashtirish yuzasidan xorijiy ilg'or davlatlar tajribalar singdirilgan. Natijada O'zbekiston Respublikasi ta'lism tizimi takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar hamda yechilishi mumkin bo'lgan muammolar ham keltirilgan.

**Keywords.** oliv ta'lism, fan va innovatsiya, tarbiya, islohot, akadem yoki moliyaviy mustaqil, ta'lism sifati va sertifikatlash.

Rivojlangan davlatlar o'z faoliyatining turli yo'nalishlarini, jumladan, ta'lism sohasini ham milliy modellar asosida prognoz qilishgan. Har bir mamlakat o'zining tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda prognozlashga o'ziga xos yondashuvni tanlagan hamda doimiy o'zgarib turuvchi shart-sharoitlarni hisobga olib, bu jarayonni takomillashtirib borgan. Bugungi kunda prognozlashning xususiyatlari iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning turli modellariga mos holda ko'rib chiqilmoqda. Xususan, dunyo miqyosida kadrlar tayyorlash jarayonini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq tarzda prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada ta'lism mazmunini takomillashtirish, o'quv rejalarini va dasturlarini qayta ko'rib chiqish, ta'lism jarayoniga innovatsion modellarni joriy etish, professor-o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish kabi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, talabalarda sifatli ta'limga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish, ta'lism muassasalarida ilmiy tadqiqotlarning rolini qayta ko'rib chiqish hamda ta'lism islohotlarini hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga mos holda prognoz qilish dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda ta'lism sifatini oshirishga qaratilgan harakatlar tobora jadallahmoqda. Chunki jamiyatning rivoji va istiqboli ko'p jihatdan malakali kadrlar bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonda ta'lism hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, ta'lism sifati va natijadorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning falsafiy mohiyatini anglashga doir yondashuvlar ham faollashmoqda. Ayniqsa, kognitiv tahlil asosidagi ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda.

So'nggi yillarda yurtimizda oliv ta'lism tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining mazmun-mohiyati va strategik maqsadlari bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu islohotlarning bosh maqsadi - oliv ta'lism sifati va samaradorligini oshirish, uni jahon standartlari darajasiga olib chiqishdir [1]. Chunki zamonaviy jamiyatda ilm-fan va ta'lism taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lismni takomillashtirish orqali mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakkantirish, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan yuqori malakali, ijtimoiy mas'uliyatga ega, mustaqil fikrlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yanada kengayadi. Bunday maqsadlarga erishish uchun ta'lism tizimidagi har bir bog'lamni tubdan isloh qilish, uni zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish talab etilmoqda. Bu jarayonda ilg'or pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lism metodlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari katta

ahamiyatga ega. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini ilmiy-amaliy asosda qayta ko'rib chiqish, o'quv dasturlari va rejalarini zamon talablariga mos ravishda yangilash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, professor-o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish, ularni muntazam ravishda qayta tayyorlash va malaka oshirish ham ta'lim sifatini ta'minlashning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Ayni paytda, zamonaviy talablarga javob bera oladigan ta'lim tizimini yaratish uchun qanday omillar muhim ekani haqidagi savol dolzarbdir. Bu omillar qatoriga ta'lim mazmunining maqsadga muvofiqligi, o'quv jarayonida tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarning mavjudligi, ta'lim muhitining ijobjiy bo'lishi, talabalarning motivatsiyasi va ularning mustaqil o'qish ko'nikmalariga ega bo'lishi kabilar kiradi. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar nafaqat bilim sifatiga, balki butun jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda barcha manfaatdor tomonlar - davlat, ta'lim muassasalari, pedagoglar va talabalarning o'zaro hamkorligi muhim o'rinn tutadi [5].

Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimining barqaror va innovatsion rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri -bu oltinchi texnologik paradigmanning shakllanishi va unga o'tish jarayonidir. Shu kungacha global miqyosda beshinchи texnologik bosqich – ya'ni telekommunikatsiyalar, internet, elektronika va axborot texnologiyalariga asoslangan taraqqiyot yetakchilik qilib kelgan bo'lsa, endilikda bu jarayon yangi texnologik yo'nalishlar bilan boyimoqda. Yangi- oltinchi texnologik yo'nalishlar o'z ichiga biotexnologiya, nanotexnologiya, sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, hamda inson kapitaliga investitsiya kiritish kabi dolzarb sohalarni qamrab oladi. Bu esa butun insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi — axborot sivilizatsiyasi bosqichiga o'tishni anglatadi. Ushbu bosqichda bilim va innovatsiya eng muhim resurs va raqobat ustunligining asosiy manbai sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida yuz berayotgan tub islohotlar mazkur texnologik o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqdir. Chunki yuqori malakali, raqamli texnologiyalar va innovatsion muhitda samarali faoliyat yurita oladigan kadrlarni tayyorlash bugungi kun talabi hisoblanadi. Bunda ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki zamonaviy kasb va ko'nikmalarni shakllantiruvchi multifunktional platformaga aylanishi kerak. Shu nuqtai nazardan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash va ularni mehnat bozoriga integratsiyalash muammolari haqida bildirgan fikrlari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Davlat rahbari quyidagilarni ta'kidlab o'tgan: "Tarmoqlar rahbarlari kadrlarga ehtiyoj to'g'risidagi ma'lumotni Oliy ta'lim vazirligi va Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etishadi. Keyin mutaxassislarni tayyorlash kvotalari bo'yicha chuqr o'ylanmagan takliflar ishlab chiqiladi. Buning natijasida kadrlar sifati va ularni ishga joylashtirish muammosi yildan-yilga kuchayib bormoqda". Bu fikrlar oliy ta'lim tizimi va iqtisodiy sohaga o'rtasidagi muvofiqlikning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganini ko'rsatadi. Kadrlar tayyorlashda real sektor ehtiyojlarini chuqr tahsil qilish, malaka va kasb standartlarini zamonaviy texnologik tendensiyalar asosida ishlab chiqish zarur. Aks holda, bozor talablariga javob bermaydigan, amaliy ko'nikmasi sust bo'lgan mutaxassislar soni ortib boradi. Shunday ekan, oliy ta'lim tizimi texnologik inqiloblar davrida o'z vazifalarini qayta ko'rib chiqib, strategik rejalarini zamonaviy ilm-fan, texnika va iqtisodiyot yo'nalishlari bilan uyg'unlashtirishi lozim.

Ta'lim sifatini ta'minlash bugungi kunda global va milliy darajadagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada mutaxassislar ta'lim tizimining samaradorligini belgilovchi asosiy omillarni aniqlab bergenlar. Ularning fikricha, ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy tarkibiy qismlar quyidagilardan iborat: [2].

- a) ta'lim muassasalari (infratuzilma, moddiy-texnik baza, boshqaruv tizimi);
- b) professor-o'qituvchilar (ularning malakasi, ilmiy darajasi, metodik salohiyati);
- v) talabalar va bitiruvchilar (ularning bilim darajasi, o'zlashtirish ko'nikmalari, mehnat bozoriga tayyorlik darajasi);
- g) ota-onalar (ularning farzand ta'limiga bo'lgan munosabati, ijtimoiy hamkorlik darajasi);
- d) kadrlar buyurtmachilari va ta'lim iste'molchilari (mehnat bozori vakillari, ish beruvchilar, real sektor ehtiyojlar).

Mazkur omillar ta'lif sifati bo'yicha har tomonlama yondashuvni taqozo etadi, chunki ta'lif sifati faqat bir yo'nalish yoki ishtirokchining harakati bilan emas, balki butun tizim elementlarining uzviy hamkorligi orqali shakllanadi. Bu haqda 1998 yilda YUNESKO tomonidan o'tkazilgan "Oliy ta'lif bo'yicha Butundunyo konferensiyasi"da ham alohida to'xtalib o'tilgan. Mazkur anjumanda qabul qilingan "XXI asr uchun oliy ta'lifning Butundunyo deklaratsiyasi"da ta'lif sifati quyidagicha ta'riflangan: "Sifat - bu oliy ta'lif sohasidagi ko'p tarmoqli konsepsiya bo'lib, u faoliyatning barcha funksiyalarini va turlarini, o'quv va akademik dasturlarni, ilmiy tadqiqotlar va stipendiyalarni, ta'lif muassasalarini yetuk va malakali kadrlar bilan ta'minlashni, o'z ustida muntazam ishlaydigan talabalarni, moddiy-texnik bazani, qurilmalarni, jihozlarni va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi". Bu ta'rifdan ko'rinish turibdiki, ta'lif sifati bu faqat bilim berish darajasi emas, balki butun oliy ta'lif tizimining kompleks holatini ifodalovchi tushunchadir. Unda inson kapitalining shakllanishi, ilm-fan va amaliyot uyg'unligi, ta'lif jarayonining barqarorligi va natijadorligi muhim o'rinciga tutadi[3].

Zamonaviy taraqqiyot sharoitida ta'lif sifatini ta'minlash masalasi bevosita kadrlar siyosati bilan chambarchas bog'liq. Agar bu borada ilg'or olimlarning qarashlariga murojaat qiladigan bo'lsak, taniqli amerikalik tadqiqotchi Djim Kollinzning fikrlari alohida e'tiborga loyiqdirdi. U shunday deydi: "Buyuk kompaniyalarning rahbarlari islohot va qayta tashkil etish jarayonini, avvalo, jamoaga kerakli insonlarni jalb qilish va keraksiz kadrlardan xalos bo'lishdan boshlagan. Shundan so'nggina ular qaysi yo'nalishda harakat qilishni belgilaganlar. Asosiy g'oya shuki: barcha muhim qarorlar kadrlar orqali hal qilinadi. Ya'ni 'nima qilamiz' degan savoldan ko'ra 'kim bilan qilamiz' savoli muhimroqdir. Chunki aynan kadrlar - bu strategiya, bu tashkiliy tuzilma, bu taktika". Kollinzning bu fikrlari bugungi kundagi real holat bilan hamohang. Zero, ta'lif tizimi va umuman jamiyat rivojida muvaffaqiyatga erishish uchun, eng avvalo, yuqori salohiyatli va mas'uliyatli kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Kadrlarni sifatli tayyorlamasdan, ularning bilim va ko'nikmalarini zamon talablariga mos holda shakllantirmasdan turib hech qanday sohada raqobatbardosh taraqqiyotga erishish mumkin emas. Shu sababli ham ta'lif tizimi, xususan, oliy ta'lif muassasalarini oldiga zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar rivoji bilan uyg'un ravishda bir qator dolzarb vazifalar qo'yilmoqda. Ular orasida quyidagilar muhim o'rinciga tutadi:

- a) Kadrlarni sifatli, amaliy ko'nikmaga ega va kafolatli tarzda tayyorlash;
- b) Professor-o'qituvchilar va talabalar mobilligini ta'minlash, ularning ilmiy va kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirish;
- g) Ta'lif dasturlarining sifati va samaradorligini baholovchi tizimlarni takomillashtirish, zamonaviy xalqaro standartlarga asoslangan baholash mezonlarini joriy qilish;
- d) Ta'lif muassasalarida innovatsion faoliyat olib borishga qodir bo'lgan yuqori malakali kadrlar zaxirasini shakllantirish.

Shu bilan birga, mamlakatimizda so'nggi uch yillikda oliy ta'lif tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish yo'lida bir qator muhim huquqiy-meyoriy hujjatlar ishlab chiqildi va ular asosida tizimli islohotlar hayotga tatbiq etilmoqda. Bu hujjatlar ta'limda boshqaruv, sifat nazorati, mehnat bozori bilan integratsiya, raqamlashtirish kabi yo'nalishlarda muhim o'zgarishlarga zamin yaratdi. Xulosa qilib aytganda, ta'lif tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligi kadrlar masalasini to'g'ri hal qilishga borib taqaladi. Kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish orqali ta'lif sifatini, ta'lif sifati orqali esa butun jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish mumkin [1].

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lif tizimini modernizatsiya qilish, uni zamonaviy global tendensiyalar bilan uyg'unlashtirish maqsadida bir qator strategik hujjatlar qabul qilinmoqda. Ana shunday muhim hujjatlardan biri sifatida, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 8-oktabrda imzolangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmon alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur farmon — oliy ta'lifni chuqr va tizimli isloh qilishga qaratilgan konseptual hujjat bo'lib, u respublikada ta'lif sifati, mazmuni va yondashuvlarini tubdan yangilashni ko'zda tutadi. Ushbu konsepsiya nafaqat amaliy chora-tadbirlar dasturi, balki o'zining falsafiy mohiyati va mazmunan chuqr yondashuvi bilan ajralib

turadi. Konsepsiya belgilangan asosiy strategik maqsadlar quyidagilardan iborat:

Yangi avlod kadrlarini tayyorlash: zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor va yuqori malakali mutaxassislarni tarbiyalash;

Oliy ta'limgiz tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, ya'ni an'anaviy tizimdan zamonaviy, innovatsion va integratsiyalashgan ta'limgiz modeliga o'tish;

Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga xizmat qiladigan raqobatbardosh ta'limgiz tizimini yaratish, bu orqali iqtisodiyot tarmoqlarini yuqori malakali inson resurslari bilan ta'minlash.

Ushbu konsepsiya asosida bir qator ustuvor vazifalarini izchil amalga oshirish ko'zda tutilgan. Jumladan:

Davlat-xususiy sheriklik asosida oliy ta'limgiz muassasalarini ko'paytirish: mamlakat hududlarida yangi davlat va nodavlat oliy ta'limgiz muassasalari faoliyatini tashkil etish orqali ta'limgiz bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish;

Sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, bu orqali ta'limgiz sifatini oshirishga rag'bat yaratish;

Xalqaro ilg'or tajribalarni joriy etish, xususan: ta'limgiz dasturlarini amaliy ko'nikmalar shakllantirishga yo'naltirish; nazariyaga asoslangan yondashuvdan amaliyot bilan uyg'unlashtirilgan tizimga o'tish [2].;

Oliy ta'limgizning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi: bu orqali ijtimoiy va iqtisodiy sohalarning barqaror rivojlanishiga real hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnni topa oladigan yuqori malakali mutaxassislarni yetishtirish.

Ushbu vazifalar oliy ta'limgiz tizimini nafaqat shaklan, balki mazmunan ham yangilash, uni jamiyat taraqqiyotining asosiy drayveriga aylantirishni ko'zda tutadi.

Aytish mumkinki, 2019-yil 8-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston oliy ta'limgiz tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida belgilangan vazifalarning izchil va tizimli amalga oshirilishi nafaqat oliy ta'limgiz sifati va samaradorligini oshirishga, balki xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu orqali O'zbekistonni dunyoning yetakchi davlatlari bilan teng raqobat qilish darajasiga olib chiqish, global ilmiy-ta'limgiz makonida munosib o'rin egallash imkoniyati yaratiladi. Konsepsiya ta'kidlanganidek, aholining oliy ta'limgiz bilan qamrovini oshirish – bu faqat miqdoriy ko'rsatkich emas, balki falsafaning "miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishiga olib keladi" degan qonuniyatiga asoslangan chuqur strategik yondashuvdir. Oliy ta'limgiz keng qatlamlarni jalgan qilish orqali kadrlar sifati oshadi, jamiyatda sog'lom raqobat muhiti shakllanadi va natijada mehnat bozorida zamonaviy talablar darajasiga javob bera oladigan, raqobatbardosh mutaxassislar yetishtiriladi. Shu bilan birga, ta'limgiz tizimining amaliyotga yo'naltirilganligi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu o'zgarishlar o'quv jarayonining sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi [3].. O'qitishda ilg'or uslublar va interaktiv yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi, ta'limgiz oluvchilarning mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodikalar – bularning barchasi sifatli ta'limgizning muhim shartidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev ham bu masalaga alohida urg'u berib, quyidagi ikki muhim strategik vazifani ilgari surganlar:

Ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini kuchaytirish – bu borada xorijiy ilg'or ilmiy markazlar darajasiga chiqish, olimlarning ilmiy faoliyatini zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash zarurati ta'kidlangan. Bunda davlatning ehtiyojlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va milliy manfaatlar asos qilib olinadi;

Akademik kadrlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash – jumladan, ularning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini yaratish, ilmiy izlanishlarga doimiy sharoit yaratish va olimlarning innovatsion faoliyatga keng jalgan etish belgilab berilgan.

Shu asosda, oliy ta'limgiz sohasidagi islohotlar faqat ta'limgiz tizimi doirasida emas, balki milliy taraqqiyotning barcha jabhalariga, ayniqsa, ilm-fan va innovatsion iqtisodiyotga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuv, o'z navbatida, O'zbekistonning ilmiy-

intellektual salohiyatini rivojlantirish, yosh avlodni global raqobatga tayyorlash va jamiyatda bilimga asoslangan taraqqiyot tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lif tizimini modernizatsiya qilish bugungi kunda O'zbekistonning barqaror va izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashning muhim vositasi sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida barcha hududlar va iqtisodiy tarmoqlarni kompleks rivojlantirish masalalari dolzarb bo'lib, ushbu maqsadga erishishda oliy ta'lif tizimining ishtiroki tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, tizimda mavjud muammolar va ularni yechish zaruriyati hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Statistik ma'lumotlarga murojaat qilsak, 2013-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizda oliy ta'lif bilan qamrov darajasi atigi 9 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich nafaqat xalqaro, balki mintaqaviy standartlarga ham mutanosib emas va maktabgacha hamda umumiyo o'rta ta'limgagi 100 foizlik qamrov fonida keskin tafovutni ko'rsatadi. Natijada, har yili maktabni bitirayotgan 10 nafar o'quvchining faqat bittasigina oliy ta'lif muassasasiga o'qishga kira oladi, qolgan to'qqiz nafari esa turli sabablarga ko'ra bu imkoniyatdan mahrum bo'limoqda [4].

Mazkur holat mamlakatda oliy ma'lumotga bo'lgan talab yuqoriligini ko'rsatadi. Shu sababli, oliy ta'lif muassasalariga qabul jarayonida keskin raqobat yuzaga kelgan. Jumladan, universitetlarda taqdim etilayotgan har bir o'rinn uchun o'rtacha 6 nafar abituriyent da'vogarlik qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lif tizimining qamrov darajasini kengaytirish, yangi OTMlar ochish, davlat-xususiy sheriklik asosidagi muassasalarini rivojlantirish va mavjud resurslardan samarali foydalanish zarurligini taqozo etmoqda. Hozirgi davrda oliy o'quv yurtlariga talaba qabul qilish tizimi markazlashtirilgan rejalashtirish asosida tashkil etilgan. Ya'ni, oliy ta'lif muassasalaridagi yo'nalishlar bo'yicha qabul kvotalari va mutaxassisliklar bo'yicha joylar soni tegishli davlat qarorlari asosida belgilanadi. Talabalar esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan tashkil etiladigan milliy test sinovlari natijasiga ko'ra saralanadi. Bunday yondashuv ma'lum darajadaadolatli va shaffof tizimni ta'minlasa-da, mavjud talab va taklif muvozanatini, iqtisodiyot tarmoqlarining real ehtiyojlarini to'liq aks ettira olmayotgani ayon bo'limoqda. Shuning uchun, tizimga moslashuvchanlik, hududiy va sohaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda individuallashtirilgan rejalashtirish mexanizmlarini joriy etish bugungi kunda muhim masalaga aylanmoqda [5].

O'zbekiston oliy ta'lif tizimi so'nggi yillarda bir qator ijobjiy o'zgarishlarga erishgan bo'lsada, tizimdag'i ba'zi muhim muammolar hali ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Jumladan, gender tenglik masalasida hamon muvozanatsizlik kuzatilmoxda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirda universitetlarga kirayotgan talabalarning 60 foizini erkaklar tashkil etadi. Bu holat, mintaqadagi boshqa davlatlar tajribasidan farqli ravishda, ayollar ulushining pasayib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur tendensiyaga ta'sir qilayotgan omillar orasida madaniy, iqtisodiy, va maishiy chekllovlar bilan bir qatorda, oliy ta'limga kirishda mavjud bo'lgan ayrim byurokratik to'siqlar ham saqlanib qolmoqda. Ayni vaqtda amalga oshirilayotgan modernizatsiya choralar, jumladan 2024-yildagi islohotlar, oliy ta'limgagi ba'zi ijobjiy siljishlarga sabab bo'ldi. Biroq, bu choralar hali to'liq darajada xalqaro standartlarga muvofiq natijalarni bera organi yo'q. Jumladan, mamlakatda oliy ma'lumotli mutaxassislarga ehtiyoj yuqori bo'lib qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyot tarmoqlarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashda jiddiy muammolarga olib kelmoqda. Yana bir dolzarb muammo - oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarining o'z mutaxassisliklari bo'yicha faoliyat yuritmasligidir [6].. Masalan, pedagogika yo'nalishlarini bitirgan talabalar orasida faqatgina 57 foizi ta'lif sohasida ishlashda davom etmoqda. Qurilish sohasi bitiruvchilari uchun esa yanada murakkabroq manzara kuzatiladi: qurilish oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari ushbu sohaga mo'ljallangan lavozimlarning atigi 75 foizini egallamoqda, qolgan 25 foizi esa boshqa yo'nalishlar bo'yicha tahsil organ mutaxassislar tomonidan egallanmoqda. Bu holat kadrlar tayyorlash va ularni mehnat bozoriga integratsiyalash jarayonida tizimli muvofiqlashtirish yetarli emasligini ko'rsatadi. Shuningdek, oliy ta'limgagi qamrov darajasining pastligi, ish beruvchilar va universitetlar o'rtasidagi aloqalarning sustligi, iqtisodiyotning texnologik yangilanishga tayyor emasligi, innovatsiyalarni joriy etish va qo'shimcha qiymat yaratish

imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab qo'ymoqda. Shu sababli, universitetlarning o'zgaruvchan mehnat bozori va iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligini oshirish, ularni bozor talablariga tezkor va samarali javob bera oladigan tizimga aylantirish dolzarb vazifaga aylangan [7].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda oliy ta'limga tizimining to'laqonli transformatsiyasi uchun quyidagi yo'nalishlar ustida jiddiy ishlash talab etiladi:

Gender muvozanatini tiklash va ayollar uchun oliy ta'limga kirishda teng imkoniyatlar yaratish.

O'z mutaxassisligi bo'yicha ish bilan ta'minlanish darajasini oshirish, buning uchun ta'limga mehnat bozorining integratsiyasini kuchaytirish.

Oliy ta'limga qamrovini kengaytirish va mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali sifatli ta'limga imkoniyatlarini oshirish.

Ish beruvchilar, sanoat va universitetlar o'rtaisdagi aloqalarni kuchaytirish, hamda talab-taklif o'rtaisdagi tafovutni kamaytirish.

Innovatsion va texnologik yondashuvlar asosida ta'limga tizimini takomillashtirish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- [1] Abdurakhmonova, Z. The role of modern pedagogical technologies in improving the quality of the educational process. ekonomika, 12-16.
- [2] Abdurakhmonova, Z. Y. Modern uzbekistan and its tourism potential.
- [3] Aripov, N., Kamaletdinov, S., Tokhirov, N., & Abduraxmanova, Z. (2022). Simulation Modeling of Train Traffic Based on GIS Technologies. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 16, 73-82.
- [4] Абдурахмонова, З. Ю. (2020). Основные трудности в процессе перевода для научно технического текста. In Общественные и гуманитарные науки (pp. 296-297).
- [5] Абдурахмонова, З. Ю. (2021). Замонавий ўқитишининг муаммо ва ёнимларида са-марали ёндошув. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1189-1193.
- [6] Абдурахмонова, З. Ю. (2022). Ёшларнинг маънавий ва маданиятини юксалти-ришнинг устивор вазифалари. Academic research in educational sciences, 3(10), 491-500.
- [7] Юлдашева, Д. М., & Абдурахмонова, З. Ю. Специфика обучения переводу на русский язык французских терминов. ББК 80я43, 172.